



«TASDIQLAYMAN»

Toshkent Kimyo xalqaro
universiteti rektor v.b.

A.B. Allakuliyev

«10.11.2026» 2026-y.

«TASDIQLAYMAN»

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi OAK raisi

A.T. Yusupov

« » 2026-y.

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi
ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon
DASTURI**

TOSHKENT – 2026

Tuzuvchi:

F. S. Baxtiyarova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası v.b. dotsenti, (PhD)

Taqrizchilar:

M.A.Abdurahmonova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası v.b. dotsenti, (PhD)

A.N.Sadullayeva

O'zbekiston milliy universiteti, Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik kafedrası mudiri f.f.d (Dsc) prof.

Dastur Toshkent Kimyo xalqaro universitetida ishlab chiqildi
va universitet Ilmiy Kengashining 2026-yil « » _____bo'lib o'tgan majlisida
ko'rib chiqildi(Nº- bayonnoma) va ma'qullandi.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish to'g'risidagi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6084-son farmonlari mazmunidan kelib chiqqan holda til masalalari tadqiqini tubdan yangilash, ona tilini milliy qadriyat sifatida targ'ib etish tizimini takomillashtirish, o'zbek tilining nazariy va amaliy muammolarini hal qiladigan yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, filologiya sohasida yuqori darajadagi ilmiy salohiyatni shakllantirish millat taraqqiyoti uchun dolzarbdir. Ushbu dastur oliy ta'lim muassasalarida 60230100 – Filologiya va tillari o'qitish (o'zbek tili) ta'lim yo'nalishi asosidagi 70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) hamda 70230401 –Kompyuter lingvistikasi magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'qitiladigan tilshunoslik fanlari o'quv mazmuniga asoslangan holda tuzildi.

Fan va ta'lim integratsiyasi natijasida Respublika Prezidenti tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda mutaxassislar tayyorlashning sifatini oshirish, oliy ta'limdan keyingi faoliyatni davom ettirish, tilshunoslikning dolzarb muammolarini hal qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

10.00.11 – Tilshunoslik nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi uchun tuzilgan dasturda "Tilshunoslik nazariyasi", "Psixolingvistika" "Nazariy tilshunoslik masalalari", "Lingvokulturologiya", "Korpus lingvistikasi" kabi fanlar doirasidagi masalalar o'z ifodasini topgan.

10.00.11 . TIL NAZARIYASI. AMALIY VA KOMPYUTER LINGVISTIKASI MUTAXASSISLIGIDAN IMTIHON DASTURI

Tilshunoslikning dolzarb muammolari

Tilshunoslik nazariyasi. Tilshunoslik fanining predmeti va vazifalari. Tilshunoslik fan sifatida. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Tilning belgilik tabiati. Sistema va struktura. Til sistemasining sathlari. Til va nutq. Paradigmatika va sintagmatika. Til va tafakkur. Til va jamiyat, sotsiolingvistika. Tilning kelib chiqishi. Til va yozuv. Tillarning tasnifi. Lingvistik oqimlar va metodlar. Tilshunoslik tarixi. Til va yozuv. Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi. Yozuv turlari. Piktografik, ideografik, logografik va fonografik yozuvlar. O'rta Osiyo xalqlarining yozuv tarixi. Yozuvning hozirgi ko'rinishlari.

Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning yuzaga kelishi. Chog'ishtirma tilshunoslik. Lingvistik tipologiya. Qadimgi hind tilshunosligi. Qadimgi hind tilshunosligining asosiy xususiyatlari Vedalar tili. Vedalar va prakrit orasidagi farqlar. "Ashtadxyan" asari. Panini grammatikasining sof empirik va tasviriy xususiyatlari. Qadimgi yunon

tilshunosligi. Qadimgi yunon tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Analogistlar va anomalistlar bahsi. Stoiklar ta'limoti. Grammatikaning mantiqdan ajralishi. Yunon tilshunosligining grammatik davri. Ellinizm davri til maktabi ta'limoti.

Qadimgi rim tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Analogistlar va anomalistlar qarashlarining davom ettirilish. Qadimgi Rim tilshunosligi vakillarining qarashlari. "Analogiya haqida", "Lotin tili", "Grammatika san'ati haqida ta'limot", "Fe'ning ma'nosi", "Grammatika san'ati haqida ta'limot" asarlarining lingvistik mohiyati. Qadimgi Xitoy tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligining asosiy xususiyatlari. Xitoy leksikografiyasi. Xitoy tilshunosligida fonetik-prosodemiya hodisasining ishlab chiqilishi. Xitoy grammatikasi asoschilari. O'rta asrlarda arab tilshunosligi. Markaziy Osiyo tilshunosligi tarixi. Tilshunoslik maktablari. Naturalizm. Psixologizm yo'nalishlari va ularning vakillari, g'oyalari. Strukturalizm maktablari. "Yosh grammatiklar" maktabi. "Yosh grammatiklar" maktabining lingvistik qarashlari. Qozon lingvistika maktabi. Moskva lingvistik maktabi. Tilga oid ta'limotlar evolyutsiyasi. Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy va boshqa allomalarning tilshunoslik rivojidagi ahamiyati. O'rta va yangi asrlarda Yevropa tilshunosligi. V.Gumboldt, A.A.Potebnya, F.de Sossyur va boshqalar ta'limoti. XX asr struktural tilshunosligi. Funktsional lingvistika. Glossematika. Amerika deskriptiv lingvistikasi. XX asr boshlari o'zbek tilshunosligi. Mustaqillik davri o'zbek tilshunosligi. O'zbek sistem tilshunosligi. Tilshunoslikdagi yangi yo'nalishlar. Tilshunoslikning tadqiqot metodlari. Umumiy va xususiy metodlar. Eksperimental-fonetik metod. Lingvogenetik tadqiqot metodlari (qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, rekonstruksiya, miqdoriy, transformatsion). Areal tadqiqot metodlari (qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, kartografik, metakartografik, statistik, kadastrlash). Tipologik tadqiqot metodlari (qiyosiy universal lingvistik usul sifatida, izomorfizm va allomorfizm). Distributiv metod. Transformatsion metod. Gap bo'laklari metodi; tarixiy - qiyosiy metod; substitusiya (almashtirish) metodi; distributiv metod; tarkibiy qismlarga ajratish metodi; transformatsion metod; statistik tahlil metodi; ma'no ko'lamini tahlil qilish metodi.

Lingvokulturologiya

Fanning nazariy mazmuni. Til, madaniyat va inson.

Tilshunoslikda "paradigma" tushunchasi. Tilshunoslikda paradigmalarning o'zgarishi masalasi. Paradigmalarning qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antropotsentrik turlari. Bilimlarning yangi antropotsentrik paradigmasi va uning lingvokulturologiyadagi o'рни. Lingvokulturologiyaning boshqa fanlar orasidagi maqomi. Lingvokulturologiyaning etnolingvistika, sotsiolingvistika va etnopsixolingvistika bilan chambarchas bog'liqligi.

Madaniyat va uning o'rganilishi. Lingvokulturologiya tarixi va nazariy asoslari. Lingvokulturologiyaning tadqiqot obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari.

Lingvokulturologiya metodologiyasi va metodlari. Lingvokulturologiyaning asosiy tushunchaviy-terminologik apparati. Til va madaniyat. Til -bu va madaniyatning o'zaro aloqasi. Fanda "til-madaniyat" masalasining o'rganilishi: V. fon Gumboldtning "til-madaniyat" haqidagi lingvistik ta'limoti. E. Sepir, B. Uorf, K. Fossler, F.de Sossyurlarning til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi xususidagi qarashlari. Madaniyat haqidagi tasavvurlarning tilda namoyon bo'lish usullari. Olamning lisoniy manzarasi. Olamning konseptual manzarasi. Lingvomadaniy birliklarning tahlili. Metafora - madaniyatning ko'rsatkichi. Madaniy makondagi ramz va stereotip hodisalari. Lingvomadaniyatda lakuna muoammosi. Paremalarning lingvomadaniy jihatlari. Insonning til ya madaniyatdagi o'rni. Inson - milliy mentallik va til egasi. Til kommunikatsiya va fikrlarni ifodalash vositasi. Insonning adabiy janrlarda tadqiqotning asosiy obyekti ekanligi. Turli millat vakillarining o'ziga xos avtoportreti. Til inson shaxsini aniqlashda muhim vositalardan biri. Lisoniy shaxs. Lisoniy shaxsni shakllantiruvchi omillar. Y.N. Karaulovning lisoniy shaxs haqidagi qarashlari. Lisoniy shaxs mohiyatining tarkibiy qismlari: qadriyat, madaniyat, individuallik. Erkak va ayolning jamiyat, madaniyat hamda tildagi o'rni. Madaniyatda "erkak- ayol" ziddiyati. Ayol va erkak ramzlari. Madaniyat va tildagi gender kategoriyasi. Ayol va erkaklar nutqining ijtimoiy tabiati va o'ziga xos xususiyatlari. Mif, folklor va tilda inson obrazi.

Matn tilshunosligi

Matn tilshunosligining maxsus o'rganilishi. Til birligi. Gap tushunchasi. Til tizimida matn sathi. Nutqning emotsionalligi va ekspressivligini ifodalovchi vositalar. Nutq ontogenezi. Ontolingvistika. Tabiatdagi jonli mavjudotlar muloqoti. Maugli bolalar. Tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar. Til qobiliyati. Til bilimi va tilni qo'llash o'rtasidagi aloqa. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari.

Nutqiy faoliyat va uning furlari. "Nutqiy faoliyat" tushunchasi. Nutqiy faoliyatning tuzilishi. Nutqiy faoliyatning psixologik mexanizmi. Nutqiy faoliyat turlari. Verbal va noverbal tafakkur. Nutqiy faoliyatning predmetik (psixologik) mohiyati. Nutqiy faoliyatda til va nutq funksiyalari. Nutq idroki (matnni tushunish).

Matn persepsiyasi. Nutqiy yoki jismoniy javob qaytarish. Murojaatni e'tiborga olish. Xabar-1 ning xabar-2mos kelmasligi. Matnni yaratish va tushunishda samaradorlik, tejamkorlik va ishonchlilik tamoyillari. Matnning kommunikatsiya akti shakli ekanligi. "Muallif (matn tuzuvchi)", "matn" va "resipent" tushunchalari. Nutqni qabul qilishning uch asosiy darajasi.

Matn - kommunikatsiyaning asosiy birligi. Matnning aktual bo'linishi: matnda tema va rema munosabati. Matn turlari. Uyg'ur yozuvi obidalari. Eski o'zbek yozuvi matnlari. XIV-XV asr matnlari. XIX asr matnlari. XX asr o'zbek tili matnlari.

Pragmalingvistika

Lingvistik belgining umumsemiologik tabiati. Lingvistik pragmatikaning amaliy shakllanishi. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi. Lingvistik pragmatikaning umumiy masalalari. Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari. Pragmalingvistika haqida nazariyalar. Olmosh va atoqli otlarning pragma-semantik tabiati. Pragmalingvistikaning til sathlariaro munosabati. Pragmatika va semiotika.

Psixolingvistika

Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari: inson omili, vaziyat omili; eksperiment tamoyili. Tushunchaviy-terminologik apparati. Psixolingvistikada nutqiy faoliyat talqini. Psixolingvistika va tilshunoslik. Indivud va kommunikatsiya. Psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi. Psixolingvistikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi. Amerika psixolingvistik maktabi: bixeviorizm, neobixeviorizm, transformatsion-generativ grammatika maktablari. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi. Transformatsion modelning birinchi varianti, uning umumiy strukturasi va xususiyatlari. Transformatsion modelning tabiiy til ifodalarini avtomatik sxemalarga solishdagi ahamiyati.

Kompyuter lingvistikasining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni.

Kompyuter lingvistikasi va an'anaviy tilshunoslik. Yevropadagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar. AQSh, Yaponiya, Koreya, Xitoy kompyuter lingvistikasi. Rossiyadagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar. Turkologiya va o'zbek tilshunosligidagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.

O'zbek kompyuter lingvistikasi fanining rivojlanish istiqbollari.

Kompyuter lingvistikasi fanining dolzarb masalalari. Lingvistik kompyuter dasturlarini takomillashtirish yo'llari. O'zbek tili kompyuter lingvistikasini rivojlantirishning asosiy tamoyillari. O'zbek tili asosidagi avtomatik tarjima, avtomatik tahrir, til o'rgatish dasturlarini yaratish zaruriyati. O'zbek tilida mavjud kompyuter lingvistikasi dasturlarini takomillashtirish. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari va kompyuter lingvistikasi.

Kompyuter va internet tarmoqlaridan foydalanish va o'zbek kompyuter lingvistikasi. Korpus lingvistikasi. Milliy korpus yaratish masalalari. Kompyuter leksikografiyasi. Tezaurus va ontologiya. Matnning morfologik va sintaktik tahlili.

Amaliy tilshunoslik muammolari. Til siyosati. Siyosiy lingvistika, lingvistik ekspertiza. Neyrolingvistika. Terminshunoslik va terminologiya. Kvantativ lingvistika. Tarjima – amaliy lingvistikaning tarmog'i sifatida. Tabiiy tilga ishlov tizimi. Axborot qidiruv tizim nazariyasi. Neyroligvisik dasturlash alohida yo'nalish sifatida. Nazariy va amaliy lingvistikaning o'zaro bog'liqligi.

Baholash mezonlari

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi imtihonni baholash mezonlari

86-100 ball olish uchun:

- variant savollarining barchasiga to'g'ri javoblar yozilgan bo'lsa;
- o'quv rejadani tashqari zamonaviy materiallardan xabardor bo'lsa;
- qonun-qoidalar, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlar, formula va tenglamalar to'g'ri yozilgan;
- bayonda ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilmay, material mazmunining ilmiy va mantiqiylik saqlansa;
- bayonda orfografik va grammatik kamchiliklar uchramasa.

71-85 ball olish uchun:

- savollarga yozilgan javoblar to'g'ri, ammo o'quv dasturi talablari doirasi bilan cheklangan;
- javoblarda ilmiylik buzilmagan;
- bayon mazmunida mantiq saqlangan;
- qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlar bayonida xatoliklar uchramasa;
- bayonda orfografik va grammatik xatolar uchramasa;
- berilgan topshiriqlarning bittasiga to'liq javob yozilmagan bo'lsa.

55-70 ball olish uchun:

- savollarning uchdan ikki qismiga to'g'ri javob yozilgan bo'lsa;
- savollarga yozilgan javoblar yuzaki, ammo ayrim xatoliklarni hisobga olmaganda, umuman to'g'ri;
- bayonda ba'zan mantiqiy chalkashliklar qayd etilsa;
- qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurda ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilgan;
- bayon orfografik va grammatik tomondan yaxshi bo'lmasa.

0-54 (qoniqarsiz) ball kimga qo'yiladi:

- savollarning uchdan ikkisi javob yozilmasa, yoki umuman javob yozilmagan bo'lsa;
- savollarga yozilgan javoblar aniq bo'lmasa yoki noto'g'ri bo'lsa;
- savollarga berilgan javoblar noaniq va mantiqiy chalkash bo'lsa;
- ilmiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan;
- bayon matnida orfografik va grammatik xatolar ko'p bo'lsa.

TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduraxmonova N. Korpus lingvistikasi. Darslik. . – Toshkent: Globeedit, 2023. –385 b.
2. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi. Darslik. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 400 b.
3. Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi . Darslik. –Toshkent: Nodirabegim, 2020. 256 b.
4. Mamatov A. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Tafakkur avlodi, 2020. – 170b
5. Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 230 b
6. Ҳакимов М. Прагамалингвистика курсига кириш. – Фарғона: Слассис, 2022. – 394 б.
7. Usmonova Sh., Shamsiyeva Sh. Psixolingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 186 b
8. Нурмонов А., Искандарова Ш. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Таълим нашриёти, 2007. – 210 б.
9. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан ва технология, 2007. – 254 б.

QO‘SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chorea-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5850 – sonli qarori.
Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
2. Abduraxmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’mini (monografiya), Toshkent: Muharrir, 2018. 150 b.
3. Li Wei, Zhu Hua, James Simpson The Routledge Handbook of Applied Linguistics. – London. Routledge, 2024. – 415 b.
4. Qodirova X. M. Zamonaviy Tilshunoslik Muammolari. Uslubiy qo‘llanma. – Urganch , 2024. – 122 b.
5. Захаров В. П., Богданова С. Ю. Корпусная лингвистика. 3-е изд., перераб. — СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2020. — 234 с.
6. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2022.
7. Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
8. Nurmonov A. va b. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent, 2001.

INTERNET MANBALARI

[http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz)

[http:// www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)

[http:// www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[http:// www.til.gov.uz](http://www.til.gov.uz)

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi ixtisosligi
bo'yicha imtihon savollari .Til va jamiyat. Uning ijtimoiy vazifalari.**

1. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi.
2. Intralingvistika. Ekstralingvistika.

3. Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun'iy til.
4. Til va tafakkur munosabati. Til birliklari va mantiqiy tushunchalarning o'zaro munosabati.
5. Tilshunoslik va semiotika. Lingvistik belgilar va lingvistik belgi tuzilishi.
6. Lisoniy paradigma va lisoniy munosabatlarning asosiy turlari.
7. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik – tildagi tarixiy-fonetik o'zgarishlarni o'rganuvchi soha sifatida.
8. Tillarning geneologik va tipologik tasniflari. Til oilalari. Til guruhlari. Turkiy tillar oilasi.
9. Til va yozuv. Yozuvning shakllanishi va rivojlanishi.
10. Tilshunoslik maktablari. Tilga oid ta'limotlar evolyutsiyasi.
11. Qadimgi Rim tilshunosligi. Qadimgi rim tilshunosligining asosiy xususiyatlari.
12. Qadimgi Xitoy tilshunosligi. Qadimgi Xitoy tilshunosligining asosiy xususiyatlari.
13. O'rta asrlar tilshunosligi. O'rta asr tilshunoslarining nazariy qarashlari.
14. O'rta Osiyoda tilshunoslikning shakllanishi.
15. Qomusiy olimlarning tilshunoslikka oid qarashlari.
16. Alisher Navoiyning chog'ishtirma tilshunoslikka asos solishi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining tilshunoslik nazariyasini o'rganishdagi ahamiyati.
17. Yevropa uyg'onish davri tilshunosligi.
18. Umumiy tilshunoslik va qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi.
19. Komparativistika.
20. V. fon Gumboldt va umumiy tilshunoslik.
21. Tilshunoslik maktablari.
22. "Yosh grammatiklar" maktabi. "Yosh grammatiklar" maktabining lingvistik qarashlari.
23. Struktur tilshunoslik. Struktur tilshunoslik asoschilari va namoyandalari.
24. F. de Sossyurning "Umumiy tilshunoslik kursi" asari.
25. Kopengagen tilshunoslik maktabi.
26. XXI asr dunyo tilshunosligi.
27. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari.
28. Sotsiolingvistik.
29. Kompyuter lingvistikasi.
30. Psixolingvistik.
31. Neyrolingvistik.
32. Pragmalingvistik.
33. Kognitiv tilshunoslik.
34. Lingvokulturologiya.

35. Amaliy tilshunoslik.
36. Bilishning dialektik metodi. Umumiy va xususiy bilish yo'llari paydo bo'lishi, fan tushunchasi, bilish bosqichlari, fahmiy bilish va nazariy bilish.
37. Tilshunoslikning tadqiqot metodlari.
38. Psixolingvistikaning o'ziga xos xususiyatlari: inson omili, vaziyat omili; eksperiment tamoyili.
39. Psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
40. Psixolingvistikaning shakllanishi va rivojlanish tarixi.
41. Amerika psixolingvistik maktabi: bixeviorizm, neobixeviorizm, transformatsion-generativ grammatika maktablari.
42. Noam Xomskiyning transformatsion-generativ grammatikasi.
43. Nutq ontogenezi. Ontolingvistika.
44. Tabiatdagi jonli mavjudotlar muloqoti. Maugli bolalar.
45. Tilni o'zlashtirish (nutq ontogenezi) haqidagi qarashlar. Til qobiliyati.
46. Bolalar nutqining o'ziga xos xususiyatlari.
47. Nutqiy faoliyat va uning furlari.
48. Til va madaniyat. So'zning milliy-madaniy xususiyatlari.
49. Bilingvizm va uning turlari.
50. Kompyuter lingvistikasi va an'anaviy tilshunoslik.
51. Yevropadagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.
52. AQSh, Yaponiya, Koreya, Xitoy kompyuter lingvistikasi.
53. Rossiyadagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.
54. Turkologiya va o'zbek tilshunosligidagi kompyuter lingvistikasiga oid tadqiqotlar.
55. O'zbek kompyuter lingvistikasi fanining rivojlanish istiqbollari.
56. Korpus lingvistikasi. Milliy korpus yaratish masalalari.
57. Tezaurus va ontologiya.
58. Matnning morfologik va sintaktik tahlili.
59. Amaliy tilshunoslik muammolari.
60. Til siyosati. Siyosiy lingvistika, lingvistik ekspertiza.
61. Neyrolingvistika.
62. Terminshunoslik va terminologiya.
63. Kvantativ lingvistika.
64. Tarjima – amaliy lingvistikaning tarmog'i sifatida.
65. Tabiiy tilga ishlov tizimi. Axborot qidiruv tizim nazariyasi.
66. Neyroligvisik dasturlash alohida yo'nalish sifatida.
67. Nazariy va amaliy lingvistikaning o'zaro bog'liqligi.

